



DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Boboyeva Muyassar Norboyevna,

Senior teacher of the Department of Mathematical Analysis of
Bukhara State University

<https://orcid.org/0000-0001-8895-1254>

Annotation. This article talks about the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in the development of the intellectual abilities of primary school teachers, the requirements for the primary school teacher, the complex of pedagogical and psychological knowledge, and methods of increasing the effectiveness of education. Tests for determining intellectual abilities of several scientists and certain conditions that allow the successful development and formation of intellectual abilities are presented. Several problems of different levels (complexity) were considered, and it was noted that their solution helps to develop students' skills of attention, observation, perception, thinking, and understanding.

Key words: primary school teacher, lesson, pedagogy, education, creativity, intelligence, intellectual ability, intelligence tests.

Аннотация. В данной статье говорится об эффективности использования инновационных педагогических технологий в развитии интеллектуальных способностей учителей начальных классов, требованиях к учителю начальных классов, комплексе педагогико-психологических знаний, методах повышения эффективности образования. Представлены тесты для определения интеллектуальных способностей ряда ученых и определенные условия, позволяющие успешно развивать и формировать интеллектуальные способности. Было рассмотрено несколько задач разного уровня (сложности) и отмечено, что их решение способствует развитию у учащихся навыков внимания, наблюдательности, восприятия, мышления, понимания.

Ключевые слова: учитель начальных классов, урок, педагогика, образование, творчество, интеллект, интеллектуальные способности, тесты интеллекта.

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar, pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi, ta’lim samaradorligini oshirish metodlari haqida so‘z yuritilgan. Bir necha olimlarning intelektual qobiliyatlarini aniqlovchi testlari hamda intellektual qobiliyatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va shakllanishiga imkon beradigan muayyan shartlar keltirilgan. Turli darajadagi (murakkablikdagi) bir nechta muammolar ko‘rib chiqilgan, ularning yechimi talabalarning diqqat, kuzatuvchanlik, idrok qila olish, tafakkur, tushuna olish ko‘nikmalarini rivojlanirishga yordam berishi takidlangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, dars, pedagogika, ta’lim, ijodkorlik, intellekt, intellektual qobiliyat, intellekt testlari.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar faqatgina xalq manfaatlari uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Shu bois ham biz buni “Mustaqillik in’omi”, “Mustaqillik imkoniyatlari” deya baralla aytishimiz mumkin. Chindan ham biz muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida qadrimiz, qadriyatlarimiz, qaddimiz tiklanayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, yosh avlodni - o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan farzandlarimizni ilk yoshdan boshlab milliy urfatlarimiz, qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida kamolga yetkazmog‘imiz zarur.

Ilm-fan va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida axborotlar hajmining keskin ortishi ilg‘or davlatlar darajasidagi raqobatbardosh va yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi uzluksiz ta’limning asosiy fundamenti hisoblangan boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun yuksak pedagogik-kasbiy mahoratga ega bo‘lgan ijodkor o‘qituvchilarni tayyorlashni taqozo qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘zda tutilgan ta’lim samaradorligi boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasida e’tirof etilgan g‘oyalalar asosida yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyanomalar, o‘quv jarayonini tashkil etishning metod va mexanizmlari, o‘qitishning innovation g‘oyalari va vositalariga bog‘liq. Lekin bu pedagogik jarayonda yuksak pedagogik malaka va kasbiy bilimga ega, dars mobaynida muammoli vaziyatlarni yarata oladigan va uning yechimini taklif eta oladigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish lozim bo‘ladi. Yuqori sinf o‘qituvchisi tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning fundamental asoslari va umumiy qonuniyatları, ularni kishilik jamiyatidagi o‘rni va ahamiyatini tizimli o‘rgatishga, bilim berishning differensial jihatlariga ko‘proq maqsadni yo‘naltirsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi, ta’lim samaradorligini oshirish metodlari, omil va vositalari bilan qurollangan, matematika, ona tili, tabiat, inson va jamiyat ta’lim sohalarining ilmiy- nazariy asoslarini mukammal bilgan holda bolaning yosh (fiziologik va psixologik) xususiyatidan kelib chiqib fanning umumiy jihatlarini o‘rgatishga, ya’ni integrativ ta’lim berishga yo‘naltiradi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolani o‘yin faoliyatidagi elementlarni ta’limiy faoliyatga yo‘naltirishni boshqara olish, mas’uliyatni his qilish, ayrim muammoli vaziyatlarda to’g’ri qarorlar qabul qila olish, vaqt ni rejalashtirish, o‘quvchilarini istak-xoxishlariga e’tiborli bo‘lish, shuningdek ezgulikni qadrlab istiqbolli kelajakni ko‘zlash fazilatlarining shakllanishiga mas’ul tarbiyachi hamdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining yana bir muhim sifatlaridan biri- ta’limiy faoliyatni boshlang‘ich va umumta’lim fanlarining uzviylik jihatlari hamda boshlang‘ich ta’lim bosqichi fanlarining o‘zaro aloqadorlik tamoyillari asosida tashkil etishidir.

Ta’lim-tarbiya tizimida keng yo‘lga qo‘yilayotgan pedagogik texnologiyalar, pedagoglar tomonidan ilg‘or texnologiyalar mohiyatining anglab yetilishiga erishish, shuningdek, ularda ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan sanaladi. Shunday ekan, pedagogning ish ko‘لامи kengayib bormog‘i kerak. Darhaqiqat, bu vazifa bugungi kunda o‘qituvchining asosiy faoliyatiga aylandi. O‘qituvchidagi intellektual

salohiyat - ishchanlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik xususiyatlari ta'lim mazmunining boyishida alohida va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o'tishiga olib keladi, o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Qolaversa, umumiy o'rta ta'lim maktablari ham yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida katta imkoniyatlarga ega.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi maqolamiz har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish haqida boradi.

ASOSIY QISM

Birinchi jahon urushidan keyin AQSHda Kulman (1922), Yerks (1923), Gering (1922) aqliy qobiliyatni o'rganishga mo'ljallangan CAVD (1925) shkalasi (Torndayk rahbarligida) ishlab chiqilgan. Yevropada intellekt diagnostikasi borasida Rishar Meyli samarali izlanishlar olib borgan. U intellektning analitik testi (1928), uning intellektni to'rt omilli: yetarlicha murakkab, plastik, yaxlitlik va ravonligini o'rganishga qaratigan testlari mavjud. Dj.Stenkiston tomonidan umumiy mexanik qobiliyatni yig'ma testi (1923), Florens Laura Gudinaf odam rasmini chizish testini (1926) ishlab chiqgan. Bu testlarda olimlarni uchta muammo qiziqtirgan: 1) katta yoshdagilarning intellektual taraqqiyotini belgilash uchun individual foydalanish shkalalarning mavjud emasligi; 2) go'daklarning aqliy taraqqiyotini aniqlash uchun qulay shkalalarning zarurligi; 3) intellekt va shaxs muhim psixologik konstruktlar sifatida psixologik testlarni ishlab chiqishning umumiy nazariyasini yaratish.

1938 yilda Buyuk Britaniyada psixologiyada keng ko'lamda qo'llaniladigan Ravenning progressiv matritsalar testi ishlab chiqilgan. Uning mualliflari Dj.Raven va L.Penros edi, ular umumiy intellektni o'rganish testiga asos solgan edilar.

Intellektning susayishini o'rganishga erishgan David Veksler, o'zining shkalasini yaratdi. Unda 11 sub'test mavjud bo'lib, intellektning turli qirralarini o'rganishga qaratilgan.

Intellektual testlar shaxsning aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, xayol, xotira, nutq) baholashda qo‘llaniladi.

Intellekt testlaridan kishining intellektual taraqqiyotining umumiyo ko‘rsatkichini aniqlash va miqdoriy baholash zarurati tug‘ilganda foydalaniladi.

Intellekt o‘zi bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.Shterni, J.Piaje, D.Veksler va boshqalar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashtiruvchi umumiyo qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o‘z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o‘quvchilarini logityud metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida, dastlab ularni IQ (intellekt koeffitsenti) aniqlab olingan. O‘quvchilarni IQ koeffitsentiga qarab guruhlarga ajratganlar va 30, 40, 50, 60 yil oralig‘ida kuzatishgan. Yillar davomida intellekt koeffitsenti yuqori bo‘lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatishgan. IQ koeffitsenti pastroq bo‘lgan sinaluvchilar ulardan farqli o‘laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan.

Ma’lumki, ba’zi insonlar aniq fanlar yuzasidan ba’zi insonlar gumanitar fanlar yuzasidan qobiliyatga ega bo‘lishadi. Ya’ni yuqori darajadagi qobiliyatga ega bo‘lgan rassomning oddiy matematik misollar oldida esankirab qolishini va yaxshi matematikning kamroq badiiy qobiliyatga ega bo‘lishini kuzatganmiz. Bunday insonlarni aqli deb aytishimiz mumkinmi. Spirmenning fikricha, insonlarda umumiyo intellekt mavjud va insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi o‘ziga xos qobiliyatları bor. Spirmen faktorli analiz, statistik protsedurani ishlab chiqgan. U bog‘liq elementlarning muvaqqatli bog‘lanishlarini tushuntirib bergen. Spirmenning fikricha intellektning umumiyo yig‘indisi, bizning aqliy xulq-atvorimizga bog‘liqdir deb tushuntirgan. Shu kungacha Spirmenning umumiyo intellekt nazariyasi, ya’ni intellektni bir taraflama baholash nazariyasi ko‘plab noroziliklarga sabab bo‘lgan. Spirmendan farqli o‘laroq Terstoun aqliy qobiliyatlarni 56 xil testlar, 7 ta klaster orqali baholashni joriy etdi. Terstoun insonlarni yagona shkala orqali baholamadi. U agar shaxs 7 ta klasterdagi barcha masalani muvaffaqiyatli yechsa, u qolgan barcha sohalarda ham xuddi shunday mavaffaqiyatga erishadi deb bilgan. Ular aqliy

qobiliyatni jismoniy qobiliyat bilan taqqoslashgan. Uning fikricha, shtanga ko‘tarish bo‘yicha jahon championi yaxshigina figuristik sport turi bilan ham shug‘ullanishi mumkin. Chunki undagi jismoniy tayyorgarlik shunga imkon beradi.

Gardner o‘z tadqiqotini bosh miyasi ba’zi qismlari fiziologik jihatdan rivojlanmagan sinaluvchilarda o‘tkazgan. Ular ko‘pincha intellekt testlaridan kam ball olishgan. Bu sindrom vakillarining ba’zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo‘sib ayirishni xuddi elektron hisoblagichday tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo‘lishgan. Ba’zilari, biror tarixiy kun bilan bog‘liq sanalarni yoddan bilishgan. Bunday sindrom egalari hattoki badiiy ijodda ham muvaffaqiyatga erishgan. Yuqoridagi faktlardan foydalanib, Gardner shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikrga kelgan. Umuman olganda shaxsda 8 xil ko‘rinishdagi qobiliyat borligini aytib o‘tadi. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erishsa, demak u qolgan sohalarda ham yaxshi natijalarga erishadi deb aytib o‘tgan.

Qobiliyat - bu bir yoki boshqa mahsuldor faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart bo‘lgan shaxsning individual psixologik xususiyatlari.

Intellektual qobiliyat - bu hech kimni, balki ko‘p tadbirlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatdir.

Intellektual qobiliyatlar ostida - xotira, idrok, xayol, fikrlash, nutq, e’tibor yotadi.

Bugungi kunda individual o‘qitish shaklida, talabalarning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi dolzarb masala hisoblanadi.

Intellektual qobiliyatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va shakllanishiga imkon beradigan muayyan shartlar mavjud:

- Talabalarning jismoniy va intellektual rivojlanishi.
- Talabaning rivojlanishini belgilaydigan vaziyatni yaratish.
- Qulay psixologik vaziyat yaratish, kattalar tomonidan talabaning ijodga bo‘lgan intilishini rag‘batlantirish.

Intellektual qobiliyatlarni samarali rivojlantirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinishi mumkin:

- Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar dasturini ta’lim dasturlariga kiritish.
- Darslarda ishning ijodiy xarakterini berish.
- Darsdagi muammoli holatlardan foydalanish.
- Intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus o‘yinlardan, vazifalardan foydalanish.
- Turli mavzular bo‘yicha tadqiqotlar qilish.
- Talabalar portfelinini yaratish.
- Ota-onalar bilan ishlash.

Intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi ayniqsa matematika fanini o‘qitishda aniq namoyon bo‘ladigan fikrlash usullarini shakllantirish bilan bog‘liqligi qabul qilinadi. Psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan fikrlash tipologiyasi mavhum va aniq, nutq va hissiy, mantiqiy, algoritmik kabi turlarni ajratib turadi. “Ko‘rgazmali fikrlash” atamasi keng tarqalgan, ya’ni ko‘rgazmali idrok orqali fikrlash. Har bir o‘qituvchi darsda ko‘rgazmali materiallardan (formulalar va chizmalardan, devorga yopishtirilgan plakat va jadvallardan, talabalar qo‘lidagi maket va namunalardan) foydalanadi.

Turli darajadagi murakkablikdagi bir nechta muammolarni ko‘rib chiqaylik, ularning yechimi talabalarning yuqorida ta‘kidlangan faoliyatining ba’zi umumiyligi shakllaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarga mantiqiy vazifa beriladi. Topshiriqlarning boshida osonroq, oxirida esa murakkab vazifalar berilgan.


Har bir topshiriq 2 qismdan iborat:

1. Katta to‘rburchak ramkada ma’lum bir qonuniyat asosida joylashtirilgan shakllar berilgan bo‘lib, ularning oxirgi qatori tugallanmagan.
2. Vazifaning pastki qismida javob variantlari keltirilgan.

Katta ramkadagi elementlar qaysi qonuniyat asosida joylashtirilganini aniqlash va shu qonuniyatga asoslangan holda pastdagagi elementlar orasidan yuqoridagi shaklni to‘ldirish uchun mos keluvchi yagona elementni topish kerak.


Diqqat, kuzatuvchanlik, idrok qila olish, tafakkur kabi intellektual faoliyatlardan foydalanishni talab qiladigan vazifalarning bir nechta namunalarini ko‘rib chiqamiz:

Серия - С, Топширик - 1




- | | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| | | | |
| 5 | 6 | 7 | 8 |
| | | | |

Серия - С, Топширик - 2




- | | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| | | | |
| 5 | 6 | 7 | 8 |
| | | | |

Серия - С, Топширик - 3





- | | | | | | | | |
|---|-----|---|------------|---|-----|---|-----|
| 1 | ... | 2 | ••• | 3 | •• | 4 | • |
| 5 | ••• | 6 | •••••••••• | 7 | ••• | 8 | ••• |

Серия - С, Топширик - 4



- | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | + | 2 | # | 3 | = | 4 | # |
| 5 | # | 6 | # | 7 | + | 8 | # |

Серия - С, Топширик - 5

**XULOSA**

Bu topshiriqlar shakllarni, ularning xususiyatlarini, xarakterini, o‘zaro munosabatlarini yoki majmuasini, munosabatlar yig‘indisini idrok qilish qobiliyatini o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, intellektual faoliyatining tizimliligi, rejalliligi, metodik aniqligi va aqliy rivojlanish darajasini oshirishga yo‘naltirilgan. Topshiriqdagi shakllarning ma’lum mantiqiy prinsipda murakkablashib borishiga asoslangan. Shakllarning joyi o‘zgarishi bilan ular “boyib”, “to‘lib” boradi. “To‘lib” borishlar gorizontal yo‘nalishda ham vertikal yo‘nalishda ham ro‘y beradi va eng oxirgi, yetishmayotgan elementda barcha o‘zgarishlar yuzaga chiqadi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish jarayonida talabalarda quyidagi 3 ta psixik jarayonlar ishtirok etadi:

1. diqqat, kuzatuvchanlik;
2. idrok, idrok qila olish;
3. tafakkur, tushuna olish.

Topshiriqlarning mohiyati shundan iboratki, dinamikani, o‘zgarishlarni kuzatuvchanlik, ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tez ilg‘ab olish qobiliyati, e’tiborlilik (diqqatning samaradorligi), xayol va tasavvurning rivojlanganligi namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. Ўқув кўлланма. Т.: 2006. – 163 б.
2. Olimov L.Ya, Ostonov Sh.Sh, Rustamov Sh.Sh. Umumiy psixodiagnostika. Darslik. Buxoro: 2020.
3. Boboyeva M.N., Qutliyeva Z.O. Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. Journal of Global Research in Mathematical Archives. 11:6 (2019), p. 10-12.
4. Boboyeva M.N. Matematika darslarida innovatsion texnologiyalar. Science and Education. 2:11 (2021), 883-892 betlar.